

ERKIN A'ZAMNING "YOZUVCHI" HIKOYASIDA FRAZEOLOGIZMLARNING QO'LLANISHI

*G'affarberganova Gulnoza Maqsudbek qizi,
Ajiniyoz nomidagi NDPI magistranti
ggaffarberganova@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Erkin A'zamning „Yozuvchi“ hikoyasida frazeologizmlarning qo'llanilishi va ahamiyati, yozuvchining iboralarni qo'llash mahorati haqida so'z yuritilgan. Ushbu hikoyada yozuvchi mashhur hikoyanavis Abdulla Qahhor uslubiga yaqinlashgan. Asarda iboralar juda o'rinali va hikoyaga betakror ma'no berishga hissa qo'sha olgan.

Kalit so'zlar. Ibora, ma'no ko'chishi, sinonimlik, tahlil, uslub, mahorat, badiiylik, o'z ma'no, ko'chma ma'no, obrazlilik, ta'sir qilish.

ERKIN AZAM'IN "YAZAR" ÖRNEĞİNDE FRAZELOJİLERİN KULLANIMI

*Gaffarberganova Gulnoza Maksudbek kizi
Ajiniyaz adına NDPI yüksek lisans öğrencisi*

Özet. Bu makale, yazarın cümleleri kullanma becerisi olan Erkin Azam'ın "Yazarı" hikayesindeki deyimlerin uygulanması ve önemi ile ilgilidir. Bu hikayede yazar, ünlü hikaye anlatıcısı Abdullah Kahhar'in tarzına yaklaştı. In eser, ifadeler oldukça uygun ve hikayeye benzersiz bir anlam kazandırmaya katkıda bulunabildi.

Anahtar kelimeler. Ifade, anlam aktarımı, eşanınlılık, analiz, stil, ustalık, sanat, kendi anlamı, anlamın taşınabilirliği, imge, sergi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РАССКАЗЕ ЭРКИНА АЪЗАМА «ПИСАТЕЛЬ»

*Гаффарберганову Гулнозу Максудбек кизи,
магистрантка НГПИ имени Ажинияза*

Аннотация. В этой статье рассказывается о применении и значении фразеологизмов в рассказе Эркина Аъзама «Писатель», об умении применять фразеологизмы писателя использовать выражения. В этой повести писатель подошел к стилю знаменитого рассказчика Абдуллы Каххара. Фразы в произведении очень уместны и способны придать рассказу неповторимый смысл.

Ключевые слова. Фраза, перенос значения, синонимичность, анализ, стиль, мастерство, артистизм, собственное значение, переносимость значения, образность, экспозиция.

USE OF PHRASEOLOGY IN THE STORY "WRITER" BY ERKIN A'ZAM

*Gaffarberganova Gulnoza Maksudbek kizi,
master's student of the Ajiniyaz NSPI*

Annotation. This article deals with the application and importance of phraseologisms in the story of the "writer" of Free Azam, the skill of the writer to use phrases. In this story, the writer approached the style of the famous storyteller Abdullah Qahhor. In the work, phrases are quite appropriate and were able to contribute to giving the story a unique meaning.

Keywords. Phraseologism, displacement of meaning, synonymy, analysis, style, skill, artistry, own meaning, portable meaning, figurativeness, influence.

Har bir yozuvchining o‘z uslubi bo‘lganidek, Erkin A’zam ham o‘z o‘rni va betakror uslubiga ega. Erkin A’zamning so‘z qo‘llash mahorati uning hamma asarlarida, hattoki, jurnalistlar bilan yoki oddiy insonlar bilan bo‘lgan ko‘cha muloqotlarida ham namoyon. Bu uslub esa uning betakror uslubidir. So‘z qo‘llash mahorati yozuvchining ijoddagi o‘rnini, ta’sir qilish uslubi esa kitobxon qalbidan o‘rin olish kabi nozik masalani o‘rtaga qo‘yadi. Ushbu maqoladagi asosiy o‘rinnarni iboralar bilan bog‘laymiz. „Yozuvchi“ hikoyasida iboralar nechog‘lik o‘rinli qo‘llanganligi va salmog‘i haqida quyidagi misollar bilan tahlil qilamiz:

...Ammo, o‘rinsiz *andishani chetga qo‘yib gapirganda*, u maydonda ot surib yurgan dongdor otaxon-u akaxonlarning ko‘pchiligiga nisbatan asl adabiyotga yaqinroq, hatto uning sodiq fuqarosi edi [5;2-b.] Bu o‘rinda yozuvchi *andishani chetga qo‘yib gapirganda* iborasini qo‘llab hikoyaga badiiylik kiritgan. Biz uni *uyatni chetga qo‘yganda* deb ham aytamiz. Lekin bu asarga nisbatan badiiylik va obrazlilikni ta’minlamaydi. "Andisha" so‘zi o‘zbek mentalitetiga bog‘liq bo‘lgan so‘z hisoblanadi. Bunda yozuvchining so‘z qo‘llash mahoratiga guvoh bo‘lamiz. U rasmona adiblar singari bolalik chog‘laridanoq yozuvchi bo‘lishni *diliga tugmagan*, ilk ijodini she‘r bilan boshlab, devoriy gazetalarni obod qilmagan edi. Bu yerda *diliga tugmoq* iborasi bilan orzu qilmoq qo‘shma fe‘lini sinonim sifatida qo‘llash mumkin. Lekin badiiy adabiyotda orzu qilmoqning o‘rniga diliga tugmoq ancha ta’sirchan va obrazlidir. Buni biz yozuvchining mahorati bilan ham bog‘laymiz. Shu o‘rinda Shavkat Rahmatullayevning quyidagi fikrlarini keltirish joiz: „Frazematabiati murakkab til birligi .Mazmun jihatni bilan leksemaga tenglashsa,tuzilishi jihatidan birikmaga,gapshaklga teng“.

U yolg‘on yozishni bilmasdi, chunki uydirma to‘qish *qo‘lidan kelmasdi* [5;3-b.]. Bu o‘rindagi yana bir ibora *qo‘lidan kelmoq* iborasidir. Biz uni uddalamoq va qila olmoq fe’llari bilan almashtirib qo‘llasak ham bo‘ladi va bu yerda sinonimlik kuzatiladi. Lekin unda iboradan chetlashish hodisasi sodir bo‘ladi. U rasmona adiblar singari bolalik chog‘laridanoq yozuvchi bo‘lishni *diliga tugmagan*, ilk ijodini she‘r bilan boshlab, devoriy gazetalarni obod qilmagan edi.

Umid qilmoq qo‘shma fe‘lini amalgalashishi aniq emasdek tuyuladi lekin, *diliga tuymoq* iborasi aniq bo‘ladigan ishga qattiq ahd qilish ,albatta, amalgalashishi kirishishga tayyorgarlikdir [5;3-b.]. Bu ham yozuvchining so‘zni to‘g‘ri qo‘llash va so‘z san’atiga usta ekanligi bilan belgilanadi.

Frazeologik birliklarning eng muhim belgilaridan biri ularning tilda tayyor holatda mavjudligidir. Ular so‘z birikmasi kabi nutq jarayonida tashkil bo‘lmashdan, balki tilda qanday barqarorlashgan bo‘lsa, shundayligicha nutqda qo‘llanadi. ... Unda qahramonimiz hali yoshlari nashriyotida muharrir bo‘lib yurardi. Bir kuni direktor uni huzuriga chorlab, *istarasi issiq*, o‘zi juda bahaybat bir odam bilan tanishtirdi [5;4-b.]. *Istarasi issiq* iborasi orqali yozuvchi metafora usulida ma’no ko‘chish usulidan foydalanadi va obraz bilan tanishtirish jarayonida tayyor leksik birlikdan foydalanib badiiylik bo‘yog‘ini oshiradi. *Istarasi issiq* iborasiga Shavkat Rahmatullayev quyidagicha izoh beradi: Xush ko‘rinishli, yoqimli, jozibador. Varianti: yulduzi issiq; issiq istarali. Antonimi: istarasi sovuq. Ko‘nglida bir nimalar g‘imirlasa-da, sipo muharririmiz *sir boy bermay* qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib iljayadi: „Rahmat, rahmat. O‘zлari ko‘raversinlar“. *Sir boy bermaslik*, indamaslik, sir saqlash. Bu yerda muallif ko‘nglidagi gapini hech kimga aytmaslik ma’nosida keltirgan.

Bulardan ortsang, mehnatkashlarning holidan xabar ol, beva-bechoraga qayishgin, inson! Yo‘q-da, *qo‘li qichiydi*. [5;5-b.]. Bu yerda *qo‘li qichimoq* iborasining ma’noviy-ishoraviy tarkibidagi kesatiq-zaharxanda baralla bo‘y ko‘rsatgan, undagi ayni ma’nuning lingvopoetik ta’kidi

yanada to‘lg‘inlashgan. Bunda matndagi murojaat qaratilgan shaxsni ifodalovchi anoyi banda, inson so‘zlarining mazmuniy harakatini ko‘rsatmaslik mumkin emas .

Kechasi bir mahalga qadar charog‘on shiypon fayzga to‘lib, u yoqdan kulgi-qahqaha eshitilib turadi. So‘ng birdan hammayoq *suv quygandek* tinchib qoladi. Mehmonlar jo‘nagan — shahar yaqin [5;5-b.]. *Suv quygandek* iborasi jimgit, tinch, sokin ma’nolarini beradi. Bu o‘rinda esa tinchgina bo‘lib qolmoq ma’nosida kelgan. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘atida esa bu iboraga quyidagicha izoh berilgan *suv quyganday* - hech qanday tovush-sharpa yo‘q. Varanti: *suv sepganday*.

Alohibda ta’kidlash kerakki, Erkin A’zam qalamiga mansub har qanday matnda so‘z butun borlig‘i, mazmuniy-hissiy qirralari ,shakl-u shamoyili va hatto sas-sadosi bilan namoyon bo‘ladi. - Sen qo‘rqyapsanmi? Sen qo‘rqma. *Qozonning qopqog‘ini yopib* tashlaganman, isi chiqmaydi. Domlaning *og‘zidan chiqib ketgan* begona ismga gumashta parvo ham qilmadi. Uning nomidan ko‘ra muhimroq ishlari bisyor edi. [5; 6-b.]. *Og‘zidan chiqib ketmoq* iborasi bilmasdan gapirib qo‘ymoq kabi ma’noni beradi. Erkin A’zam hikoyaga tezkorlik va ta’sirchanlikni yuklash maqsadida bu iboraga murojaat qilgan.

-Amaki, so‘roq belgisi zo‘rmi, undovmi?

Asar boshlanmasi ham ibora bilan boshlanib, yakuni ham ibora bilan tugagan. Bunday hikoyalaramizning adabiyotimizda salmoqli bo‘lishini, yana ham davom etishini, adabiyotimizning mudom Abdulla Qahhordek, Erkin A’zamdek ibora, maqol va matallarga boy bo‘lishini kutib qolamiz.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi Erkin A’zam asarlarida turfa ijod namunasi, tilning leksik xususiyatlari, inson xarakterlarini ochib berishdagi o‘xshatishlar kitobxon uchun juda tushunadigan tarzda bayon etilgan.Yuqoridaq iboralar misolda ham biz yozuvchining o‘zi bilmagan holdagi yozuvchilik mahoratini namoyon qilganmiz deya ayta olamiz.Erkin A’zam asarlarida tarbiya va xulosa chiqarish kabi fazilatlar ham juda katta salmoqqa egadir. Asardagi rais obrazida biz shunchalik qishloq xo‘jalik ishlaridan ortib yana rais bo‘lishiga qaramasdan ijod bilan shug‘ullanib turadigan, ilhom kelgan vaqtida qog‘ozni qoralab turadigan inson ekanligi ham asar mazmunini va xulosasini insonning ijod bilan tirik ekanligi, ko‘ngil xotirjamligiga oz bo‘lsa-da hissa qo‘sha olishini anglaymiz. Bosh obraz esa har doim ijod bilan tirik ekanligi, boshqa ilhom havasiga tayangan insonning asarlarini qolipga solib berish va kamchiliklarini bartaraf qilish bilan shug‘ullanib hayot kechiradi va bu jarayon uning hayot mazmuniga aylanib qoladi. Erkin A’zamning ushbu hikoyasi, ayniqsa, adabiyot sohasidagi insonlar uchun juda ta’sirchan va badiiy tarzda talqin qilingan.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahmatullayev Shavkat. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.(darslik).Toshkent “Universitert”, 2006.
2. Mahmudov Nizomiddin, 2023. O‘R FA O‘zbek tili,adabiyoti va folklori instituti direktori, filologiya fanlari doktori,professor. “Vergul zo‘rmi,nuqtami?-Erkin A’zamning “qo‘shtirnoq”li so‘zları.Toshkent.Maqola.
3. Tohir Malik. “Shaytanat” (1-kitob) qissasi, www.ziyouz.com-. Islom.uz ma’rifat markazi. – Тошкент, 2007.-101-bet.
4. Rahmatullayev Shavkat.”O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”, Toshkent, ”O‘qituvchi” nashriyoti, 1978.
5. Erkin A’zam , “Yozuvchi” hikoyasi.ziyo.uz kutubxonasi.
6. www.ziyouz.com.